
AHOLIGA MUROJAAT



Aholiga murojaat

So'x tumani hokimligi va tuman FVBning tumanimiz hududida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari rahbarlari va tumanimiz aholisiga murojaati

Hurmatli tumandoshlar va tadbirkorlar!

Ayni damlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan xabarlardan sizlarga ham ma'lumki, Farg'ona viloyati Farg'ona shahar "Mash'al" MFY Sayilgoh ko'chasidagi 4 qavatli binoning yer to'lasida joylashgan karaoke kafesida yong'in sodir bo'lishi oqibatida 6 nafar fuqaro halok bo'lgan, 7 nafar fuqaro turli darajadagi tan jarohatlari bilan shifoxonaga yuborilgan.

Shu kabi holatlar yuz berishining oldini olish maqsadida tumanimizdagi ko'p qavatli uylarning yerto'lalarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlardan hamda ko'p qavatli uylarda istiqomat qiluvchi fuqarolardan yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etishlarini so'raymiz.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-07-31 18:33:52